

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 25-dekabrda PF-214-sonli *Farmoni* tahririda — Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 29.12.2023-y., 06/23/214/0984-son

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60- son *Farmoni*, 2022-yil 28-yanvar // Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 10.02.2023-y., 06/23/21/0085-son

Abrorov Sirojiddin va Imamnazarov Jahongir (2021) Islom moliyasi: O‘zbekiston uchun yangi imkoniyatlar. Iqtisodiyot va ta‘lim, 4-son, 146-158 bet

Bayauletov. E.A (2019) Islom moliya asoslari. O‘quv qo‘llanma

M. Kabir Hassan, Sirajo Aliyu, Andrea Paltrinieri and Ashraf Khan (2018), A Review of Islamic Investment Literature, The Economic Society of Australia doi: 10.1111/1759-3441.12230

Nasution Lokot Zein (2018), Researcher Financial Sector Policy Center, Issues and challenges for developing corporate sukuk: lessons from an Indonesian case study, RJOAS, 2(74)

Slim Mseddi (2022), International issuance of Sukuk and companies' systematic risk: An empirical study, Copyright 2022 Borsa Istanbul Anonim Sirketi. Published by Elsevier

**MAMLAKATIMIZDA MUDORABA SHERIKCHILIGINI QO‘LLASHNING
AFZALLIKLARI**

*PhD, dots. **Batirova N.***

O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi dotsenti

Norqulov Sodik Isoq o‘g‘li

O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi talabasi

Bugungi zamonamizda iqtisodiy jarayonlar beqaror ravishda o‘zgarib borishi insonlarning bu borada dunyoqarashini o‘zgartirishga undaydi. Bugungi kunda iqtisodiyot haqida gap ketar ekan, eng ko‘p ishlatiladigan iboralardan biri bu- investitsiyadir. Darhaqiqat investitsiya bu iqtisodiyotda juda katta rol o‘ynaydigan omilki, investitsiyaga erishish uchun odamlar bugungi kunda turli vositalardan foydalanmoqdalar. Islom iqtisodiyotida keng qo‘llaniladigan mudoraba instrumenti bugungi kunda investitsiya jalb qilmoqchi bo‘lgan juda ko‘p tadbirkorlarimizga qo‘l keladi. Mudoraba instrumenti insonlar uchun qulay tomoni shuki bunda bir tomon sarmoyador ikkinchi tomon tadbirkor yoki mudorib bir-biriga ehtiyoji seziladi. Bugungi kunda mamlakatimizda investitsiyaga muhtoj tadbirkorlikni boshlamoqchi bo‘lib turgan insonlar deyarli har qadamda topiladi. Shu bilan birgalikda mamlakatimizda inflyatsiya sababli tadbirkorlar o‘z mablag‘larini biror biznesga yo‘naltirish kerakligini anglab yetishmoqda. Chunki pul qadrsizlanib borishi bugungi kunda sezilarli darajada ta‘sir qilmoqda. Islom moliyasi nuqtayi nazaridan mudoraba instrumenti xalqimizga juda foydali mahsulotdir. Mudorabada ikki tomonning ham tashabbuskorligi juda muhim rol o‘ynaydi. Chunki ikkala tomonda ham amalga oshirish mushkul bo‘lsa-da, riski kam bo‘lgan imkoniyatlar mavjuddir. Masalan, sarmoyador biror mulk olib ijara tamoyili asosida ish yuritishi mumkin, mudorib esa ijaraga ishga yollanuvchi bo‘lib mablag‘ o‘lishi mumkin. Bundan bilamizki

tadbirkor risk tufayli kattaroq foydaga ega bo‘lishi mumkin. Tomonlar haqiqatdan ham bir biriga ishonch hosil qilishi ham kerakdir.

“Mamlakatda tadbirkorlikni rivojlantirishda islomiy moliya mahsulotlarini moliyalash vositalarining qaysi turlari samaraliroq bo‘lishini qo‘shimcha o‘rganib banklarning 81%i mushoraka va mudoraba hamkorlikka asoslanganligini, undan keyin murobaha va ijara ekanligini ta’kidladi”.²¹⁷ Mudoraba shunday tamoyilki bunda bir tomon sarmoyador ikkinchi tomon tadbirkor bo‘ladi. Kimdadir biznes reja bor-u yana kimdadir sarmoya bu ikkalasini tutashtiruvchi islom moliyasi mahsuloti mudorabadir. Mudoraba sherikchiligiga xalqimiz orasida ehtiyoj sezadigan aholini ko‘plab uchratishimiz mumkin. Mamlakatimiz iqtisodiyotini rivojlantirishda ham mamlakatimizda mudoraba sherikchiligini rivojlantirish iqtisodiyotning o‘zgarishiga katta hissa qo‘shadi. Chunki aholimizning katta qismi e’tiqodiy jihatdan mavjud imkoniyatlarning ko‘pidan foydalana olishmaydi. Mudoraba sherikchiligining xalqimizga keltiradigan foydalarini ko‘plab jihatdan topishimiz mumkin, birinchidan mamlakatimiz aholisining katta qismini musulmonlar tashkil qilgani uchun ularning e’tiqodiy jihatdan to‘siq bo‘lmaydi, ikkinchidan biznes boshlamoqchi bo‘lgan lekin biznes boshlash uchun mablag‘ topolmayotganlar uchun kapital vositasidir, uchinchidan tadbirkorning imkoniyati bo‘sh qolib ketmasligidir, “aslida mudoraba so‘zining tarjimasi yer yuzida yurish degan ma’noni anglatadi. Chunki bu ishni yurituvchi yer yuzida talabi kasb qiladi. Bundan yana bir foyda ko‘ramizki odatda bu ish bilan shug‘ullangan inson bir kasbga yaxshilab o‘rnashib oladi. Mudorabaning avvalida moli bor shaxs sherigiga uni topshirib qo‘yadi. Sherik molni ishlatishga kirishganda xuddi vakildek holga o‘tadi. Mudoraba omonat bilan yo‘lga qo‘yilib ikki taraf foyda ko‘rsa, shirkat bo‘ladi. Agar sherik xilof qilib, foydani bermay, yeb ketsa (birovning molini tortib olish) bo‘ladi. Agar barcha foyda mol egasiga berilishi shart qilinsa, bizo‘a (ishchining tekinga ishlab berishi)dir. Agar foydaning hammasi ishchiga bo‘lsa, qarz bo‘lib qoladi”². Bundan ko‘rinadiki qarzi hasan berish bu tekinga ishlab berish bilan qiyoslanadi. Mudorabada foyda taqsimoti chegaralanmagan bo‘lsada, bunda asosan mudoribning mehnati va robbul molning foyda olish risk koeffitsiyenti bilan baholanadi. Bunda investor asosan mudoribning mehnati kam bo‘lib foyda riskka asoslansa, investorning foyda ulushi ko‘proq bo‘lishi mumkin. Aksincha risk kam bo‘lib foydaning hajmida mudoribning mehnati asosiy rol o‘ynasa, bu holatda mudoribning foyda ulushi investor²¹⁸ga nisbatan balandroq bo‘lishi mumkin. Foyda aniq mol bilan o‘chanmaydi, agar mudoribning foydasi aniq qilib qo‘yib, mudoraba foydasi qanday bo‘lishidan qat’iy nazar shu foydani olsa, bu kelishuv ijara bo‘lib qoladi. Aksincha bo‘lib, investorning foydasi aniq qilib qo‘yilsa, unda bu kelishuvda ribo hosil bo‘lib kelishuv botil bo‘ladi. Mudoraba kelishuvda foyda real foydaning ulush taqsimoti bo‘yicha bo‘linadi. Masalan mudorib foydaning 1/3,2/3 qismi

²¹⁷ Jahongir Imamnazarov. LANDSCAPING ANALYSIS OF ISLAMIC FINANCE INSTRUMENTS IN UZBEKISTAN 34-bet.

² Шайх Мухаммад Содиқ Мухаммад Йусуф. Кифоя. 3-жуз. “Hilol-Nashr” Т.: 2022. -290

yoki 40%, 50%, 60% i menga qolgani sizga deb taklif berishi mumkin. Foyda kelishuvga asosan bo‘linsada, zarar robbul mol zimmasida bo‘ladi, chunki mudorabada robbul molning foyda olishiga u zarar ko‘rish ehtimoli borligi bilan haqlidir. Mudoribda esa ham mehnat bo‘lib bundan tashqari u ham kelishuv oxirida ish faqat kiritilgan sarmoya bilan tugasa ya‘ni foyda yo‘q bo‘lsa u mehnatiga kuyish ehtimoli bor. Mudoraba ikki turga bo‘linib cheklangan mudoraba va cheklanmagan mudoraba turlaridir. Cheklangan mudoraba bu robbul mol tomonidan ma‘lum chegaralar qo‘yilgan bo‘lib, mudorib o‘sha soha ichida olib borishiga to‘g‘ri keladi. Cheklangan mudorabada robbul mol mudorib faoliyat olib borolmaydigan darajada cheklov qo‘ymasligi kerak, chunki robbul mol ruxsat bergan soha juda kichkina bo‘lib mudorib bu ishdan foydadan ko‘ra zarar ko‘rish ehtimoli oshadi. Cheklanmagan mudorabada esa robbul mol mudoribga mablag‘ni beradi va mudorib esa sharaftga ruxsat berilgan faoliyat bilan shug‘ullanadi.

Mudoraba sherikchiligining keng ko‘lamda foydalanishning to‘siqlari: bu sherikchilikka aholimizga targ‘ib qilish faol bo‘lmaganligi sababli hammaning ham bu faoliyatdan xabari yo‘q, mamlakatimizda bu faoliyatning bank faoliyatida ish olib bormayotganligidir, mudoraba sherikchiligining boshqa nomlar bilan atalishi yoki mudoraba yaqin bo‘lib mudorabaning talabga javob bermayotganligidir. Aholi o‘rtasida mudoraba sherikchiligidan foydalanganlar tomonidan tegishli tartibda hujjatlarning rasmiylashtirilmasligi ularning bu boradagi yetarli darajada savodxonlikka ega emasligi bilan bog‘lanadi. Mudoraba sherikchiligining foydalarini bilgan holda mudoraba sherikchigini amalga oshirish mamlakatimizni investitsiyaga bo‘lan ehtiyojini qondirib, milliy iqtisodiyotimizga sezilarli darajada ta‘sir qilishi mumkin. Mamlakatimizda bu sherikchilikni amalga oshirish uchun elektron ilovalar va davlat yoki nodavlat idoralar orqali tashkillashtirish masalalarini ko‘rib chiqishimiz kerak. Robbul mol bor bo‘lsa mudorib topilmaydi, mudorib bo‘lsa robbul mol topilmaydi, topgan taqdirda ham ularning biznes rejasi mos tushmay qolishi mumkin. Bu soha rivojlanishi uchun albatta aholiga bu sohani tanishtirish va elektron ilovalarning o‘rni beqiyos bo‘ladi.

Xulosa qilib aytganda, mamlakatimiz rivojlanish jarayonida bir qancha iqtisodiy islohotlar olib borilayotgan paytda islom moliyasi mahsulotlaridan xalqimiz foydalanishi kerak. Islom moliyasi esa mamlakatimizda bugungi kunda mavjud bo‘lmagan ba‘zi moliyaviy mahsulotlarini taqdim eta oladi. Bundan tadbirkorlarimiz o‘z tadbirkorlik yo‘lida yangi imkoniyatlar paydo qila oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Шайх Муҳаммад Содиқ Муҳаммад Юсуф. Кифоя 3-жуз –Т: "Hilol-Nashr", 2022. -640 б.
2. Batirova N.Sh., Berdiyev I.X. Islom iqtisodiyoti asoslari. O‘quv qo‘llanma. -2023-y. T: "Lesson Press" MCHJ nashriyoti, -127 b.
3. Ислом иқтисодиётида савдо ва тadbirkorлик: Олий ўқув юрти талабалари учун дарслик. Р. Абдуллаев /- Т: «Lesson press» нашриёти, 2022.-232 б.
4. Jahongir Imamnazarov. LANDSCAPING ANALYSIS OF ISLAMICFINANCE INSTRUMENTS IN UZBEKISTAN 51 p.
5. <https://islommoliyasi.uz>